

## **Yoshlarni hayotga tayyorlashda musiqaning o'рни**

**Jizzax davlat pedagogika instituti**

**“Vokal va cholg’u ijrochiligi” kafedrası  
o’qituvchisi**

**Mingjigit Xolbekov**

**tel:+998(93)3005132**

**arrowarcher@mail.ru**

### **Annatatsiya**

Yosh avlodni ma’naviy boy, axloqiy pok, jismoniy barkamol, har tomonlama yetuk rivojlangan madaniyatli inson qilib shakllantirishda ulug‘ bobolarimiz yaratgan boy madaniy merosi, shu jumladan ohangrabo qo‘shiqlar o‘ziga xos o‘rini va usullari.

### **Аннотации**

Богатое культурное наследие, созданное нашими великими предками, в том числе мелодичные песни, занимает особое место и занимает особое место в формировании молодого поколения как духовно богатых, нравственно чистых, физически здоровых, разносторонних людей.

### **Annotations**

The rich cultural heritage created by our great ancestors, including melodic songs, occupies a special place and takes a special place in the formation of the young generation as spiritually rich, morally pure, physically healthy, versatile people.

**Kalit so'zlar:** tarbiya, ma’naviy ahloq, musiqiy meros, xashar, xalq og’zaki ijodi, estetik, did, xazina

Qadim zamonlardan xam ijtimoiy hayotga erta qadam qo‘ygan bola hayotga teran ko‘z bilan qarashini ota bobolarimiz yaxshi bilgan va shunga xarakat qilishgan. U paytlarda MTM lari bo‘lmagan bo‘lsa buni qanday amalga oshirishgan deyishingiz mumkin, xashar sayllar, o‘yinlar va mahalladagi turli yig‘inlar buni

o'rnini bosgan. "Bir bolaga yeti mahalla ota-ona" degan maqol zamirida xam bolani kata hayotga tayyorlashdagi o'zaro hamkorlik yotibdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Xo'sh bu jarayonda musiqaning xalq og'zaki ijodining o'rni qanday bo'lgan?

Yosh avlodni ma'naviy boy, axloqiy pok, jismoniy barkamol, har tomonlama mujassam rivojlangan madaniyatli inson qilib shakllantirishda ulug' bobolarimiz yaratgan boy madaniy merosi, shu jumladan ohangrabo qo'shiqlar o'ziga xos o'rin tutadi. Inson o'z ajdodlari madaniy merosini bilmay turib, haqiqiy madaniyatli kishi bo'la olmaydi. Ma'lumki sharq xalqlari, shu jumladan o'zbek xalqi o'zining qadimiy ko'p qirrali, bebaho madaniy an'alariga ega, ayniqsa avloddan avlodga ko'chib kelayotgan sehrli xalq kuylari va qo'shiqlari muhim ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan durdonalardandir. Agar ajdodlarimiz uzoq yillar davomida mehnat va kurash jarayonida yaratgan ashulalar yoshlarni estetik madaniyatli, nafosatli inson bo'lib shakllanishida muhim o'rin tutgan.

O'zbek xalq ijodiyoti bitmas-tuganmas ummondiki, qo'shiqlar undagi sarchashma buloqlardan biridir. Qo'shiqlar xalqimizga har qanday davrda: og'ir yuklarni ko'tarib o'tishda ham, dorilomon kunlarga yetishida ham, doimo hamroh bo'lib keladi. Istiqlol sharofati ila xalqimizning o'ziga xos boy madaniy-ma'naviy merosini o'rganish va uni jahon miqyosi darajasiga olib chiqish yanada dolzarb vazifalardan bo'lib borar ekan, bunda ulug' ajdodlarimiz yaratgan va yaratayotgan xalq qo'shiq-kuylari alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbek xalq qo'shiqlarida o'zgacha bir sehr, kishi dilini zavq-shavqqa to'ldiruvchi yoxud nozik dil torlarini nolalantiruvchi bir mayin joziba bor. Zero, bu yorug' olamning o'zi ham qo'shiq-kuy bilan tebranadi, go'yo: hozirgina dunyoga kelgan chaqaloq onaning yoqimli allasi og'ushida orom oladi. Keksalarimiz go'dakning qulog'iga birinchi bo'lib aytishadigan azon ham qiroat bilan ohang bo'lib quyiladi. Yangigina kelinchak ham o'zga xonadon ostonasiga yor-yor qo'shiqlari ostida qadam qo'yadi. Inson qazosi yetib bu yorug' dunyoni tark etar ekan, marosim qo'shiqlari aytiladi. Xalq qo'shiqlarida insonning ruhiy kechinmalari, orzu-umidlari, dard-u alamlari, qalb tug'yonlari, shod-u xurramliklari ifodalanadi. Xalq qo'shiqlari — qudratli tarbiya

manbaya hamdir. Ularda xalq turmushining barcha sohalariga oid pand-nasihati, sevgisadoqat o'g'itlarini topasiz. Zero, xalqimiz qo'shiqni «dil tajimoni» deb bejiz aytmagan. O'lmas madaniy-ma'naviy merosimiz dengizida xalq qo'shiqlari marvarid durdonalaridir. O'zbek xalqi juda qadimdan behisob qo'shiq xazinasiga ega. Bu qo'shiqlarni ko'lna zamonlardan to hozirgi kunlarga ardoqlab, saqlab, sayqal berib aytib kelmoqdalar. An'anaviy ijro etib kelinayotgan xalq qo'shiqlari shu kunlarda ham zamonamizga yangicha tarovat baxsh etib kuylanib kelinyapti, ulaming yangi-yangi namunalari yaratilmoqda.

Musiqasi san'ati asosan oddiy mehnatkash xalq ichida rivojlangan, kuylangan, shu bois xalq musiqasi ijodiyoti to'g'risida ko'p tarixiy asarlar bundan dalolat beradi. Masalan, "Zafamoma" asari muallifi Sharafiddin Ali Yazdiy yozgan: "Hunarmandlar san'ati xilma-xil bo'lib, o'zida ashula, so'z va raqsni jamlagan. Xalq goh ashula aytar, goh so'z bayon qilar, goh hazillashib, vaqti chog'liq qilur erdi"<sup>1</sup>. O'rta Osiyo musiqasi madaniyatining rivojlanishi Alisher Navoiy nomi bilan bog'liq. U shoh Sulton Husayn Bayqaro davrida ijod qilgan. Navoiy maslahati bilan saroyda sharq mamlakatlaridan shoirlar, musiqachilar, rassomlar, raqqosalar taklif etib, ularga ijod uchun sharoit yaratib, muntazam ular orasida mushoiralar, turli tadbirlar o'tkazilgan. Shoh tomonidan ulaming san'atiga yuqori baho berib, rag'batlantirib kelgan. Tarixiy manbalardan ma'lumki, XV asrda Navoiy rag'batlantirgan san'atning abg'ora turi rivojlangan. Navoiy musiqasi san'atiga ulkan muhabbati tufayli musiqachilar faoliyatini keng rivojlantirgan.

Bugungi global axborot asrida bolalar tobora internetga bog'lanib borayotgani, bazi jihatlarda milliyligimizni unutib qoyayotgani barchaga sir emas. Aynan millatning urf-odat va an'analarini o'zligini saqlashda musiqaning o'rni beqiyosdir.

---

<sup>1</sup> O'zbek musiqasi tarixi. 13-b.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Fitrat A. O'zbek klassik musiqasi ya uning tarixi. -T.: 1993.
2. Tursunov R. Xalq musiqa ijodiyoti va adabiyoti. - T.: 2002.
3. Karomatov F. O'zbek xalq musiqa merosi. -T.: 1985.
4. Solomonova T. E. O'zbek musiqa tarixi. -T.: 1981.
5. Odilov A. O'zbek xalq dholg'u asboblarida ijrochilik tarixi. -T.: 1995.
6. Jabborov A. Musiqiy drama vakomediyanlari, o'zbek kompozitorlari
7. Xolbekov, M. (2021). Ta'limda samaradorlikni oshirishda mavzuli konsertlarning o'rni. *Журнал музыки и искусства*, 2(2). извлечено от <https://art.jspi.uz/index.php/art/article/view/3158>
8. Muminova, M. (2021). YOSHLARNI BADIY-ESTETIK RIVOJLANISHIDA XALQ MUSIQASIING O'RNI. *Журнал музыки и искусства*, 2(2). извлечено от <https://art.jspi.uz/index.php/art/article/view/2963>
9. Hasanova, N. (2021). ADABIYOT- BARKAMOL AVLOD TARBIYASINING MUHIM OMILI. *Журнал музыки и искусства*, 2(2). извлечено от <https://art.jspi.uz/index.php/art/article/view/2930>
10. Hasanova, N. (2020). MUSIQA - MA'NAVIY OZUQA BERUVCHI MANBA. *Журнал музыки и искусства*, 1(1). извлечено от <https://art.jspi.uz/index.php/art/article/view/297>